Shakllanishning ilk bosqichlaridanoq o`quvchilar kichik diapazonda bo`lsa ham, sof, toza va ifodalash dinamik belgilarga rioya qilgan holda kuylashga harakat qilishlari kerak. Kuylaganda og`izni to`g`ri ochish, nafasni to`g`ri olish, kuylash talaffuzini yaxshilash, ovoz tembrini yorqinroq hamda yumshoqroq qilishga erishishlari mumkin.

Birinchi bosqichda o`qituvchi o`quvchilarni tovush pardasiga og`irlik tushmasligi va ularning ovozlari charchab qolmasligi uchun qo`shiq aytish faoliyatini boshqa faoliyatlar bilan almashtirib turishi lozim.

Ikkinchi bosqichda asosiysi o`quvchilarning malakalarining hamma qirralarida ijobiy o`zgarishlar ro`y beradi. Nafas yo`llarida erkinlik hosil bo`ladi, ovoz tembrini yorqinlashadi, musiqiy xotira, eshitish, ladni his etish qobiliyati, diqqat rivojlanadi.

So`nggi bosqichda kuylash malakalarini rivojlanganlik darajasi yuqori bo`ladi. Jarangdorlikning sof va ifodali bo`lishi, ovoz hosil bo`lishi usulining mustahkamlanishi ovoz tembrini sifatining oshishi ovoz diapazonining sezilarli darajada kengayishi, kuylashda talaffuzning hamda nafas olishning to`g`ri shakllanganligini ko`rsatishimiz mumkin. Bu bosqichda o`quvchilar chuqur musiqiy his-tuyg`u va musiqiy to`g`ri kuylashga erishgan bo`ladilar. Bu davrda

o`qituvchi katta diapazonli, sakrashlar ishtirok etgan mashqlardan, turidan foydalanish mumkin. Masalan: Musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish, darajasi ovoz tembrining sifatiga, ovoz hosil qilish usuliga va boshqa malakalarga ta`sir qiladi.

Kuylash malakalarini shakllantrishda qayta kuylash mashqlari usulining maqsadga muvofiq ravishda bajarilishi muhimdir. Qayta kuylash usulining 2 tartibi mavjud.

1. O`quvchi kuylayotganda o`z oldiga aniq bir maqsadni qo`yishi kerak.
2. o`quvchi nimaga erishganini, har bir mashqning qanday natija berganini, qanday jamoalarga

yo`l qo`yilganini ilish kerak va kelajakda ushbu jamoalarni bartaraf etishga harakat qilishi kerak.

Yuqorida sanab o`tilgan shartlarni bajarish musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshiradi. har bir dars o`z xususiyatiga ko`ra takrorlanishi bo`lmaydi. Darsning har bir faoliyati metodlari maqsadi va vazifalari va natijalari tuzib chaqirilgan bo`ladi.

Dastlab darsning maqsadi belgilanadi.

1. Ta`limiy maqsad – intonatsiya ustida ishlash, yangi mavzuni tushuntirish yangi qo`shiq

o`rgatish, dars jarayonida avval o`tilgan mavzularni mustahkamlash va dars maboynda ulardan unumli foydalanish.

2. Tarbiyaviy maqsad – o`rganilayotgan qo`shiq orqalio`z vataniga, xalqiga nisbatan mehr

uyg`otish.

3. Rivojlantiruvchimaqsad – mustaqil fikrlay olish, o`z fikr mulohazalarini bayon eta olish boshqa o`quvchilarning hat ova kamchiliklarini topib, ularni tuzata olish.
4. Shakllantiruvchi maqsad – musiqiy qobiliyatini, eshitib aniqlash malakalarini, to`g`ri o`stirish, qo`shiq kuylaganda to`g`ri nafas olish, ovoz

apparatidan qoidadagidek foydalanishni, musiqiy did va dunyoqarashni shakllantirish.

II Darsning turi: baxs munozaraga asoslanga intellektual o`yin.

III Darsning ko`rgazmaliligi: darslik va qo`shimcha adabiyotlar, cholg`u magnitafon yoki kartochnka va plakatlar.

IV Darsning rejasi:

1. Musiqa ohangi ostida o`quvchilar sinfiga kiradilar va joylariga o`tiradilar.
2. Eshirilgan usiqa yuzasidan fikr – mulohazalar almashinadi (asarning muammolari, tempi, ritmi, tonligi va boshqalar).
3. Yangi mavzu: “Toneka”. Kuyning ta`sir nuqtasi – tonikadir. Har bir tonlikda tonika mavjud. Musiqiy asarlar o`z yozilgan tonligining tonikasida tugaydi va hakoza.
4. O`rgatishimiz kerak bo`lgan “ota-onalarga” qo`shig`ini tinglaymiz. O`quvchilar qo`shiq haqida o`z fikr mulahozalarini bildiradilar. Qo`shiqning kompozitori haqida o`qituvchi so`zlab beradi. Yangi mavzuga bog`langan holda o`qituvchi o`quvchilarga asarning tonikasini topishni vazifa qilib beradi.
5. Qo`shiqni o`rgatib kuylaymiz ovoz sozlovchi mashqlar bilan ovoz sozlanadi, qo`shiq bo`lib o`rganiladi.
6. O`qituvchi o`quvchilar bilan qo`shiqni musiqiy (tonligi, o`lchovi tempi dinamikasi) va mazmuniy ota- onaga nisbatan mehr muhabbat hurmat tuyg`ulari va hakoza) jihatdan tahlil qilib, o`quvchilar fikrlarini to`ldiradi. Va qo`shiqni tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi.

V. Darsning borishi: Musiqiy ta`lim an`anaviy shaklda olib boriladi. So`ng o`qituvchi yuqoridagi rejaga asosan darsniolib boradi. Dars so`ngida uyga vazifa berilib faol qatnashgan o`quvchilar baholanadi.

Musiqa madaniyati darslarining samaradorligini oshirish uchun mazkur predmet xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muayyan didaktik prinsiplarga asoslanadi.

Vokal xor ishlari jarayonida soz va ansambllik ustida ishlash

Xor ijrochiligi amaliyotida ham chiqargan xor drijyorlari xor jamoasi ijrosini eng muhim elementlari haqida o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Ijrochilik san'at turi sifatida bu elementlar bolalar xor jamoalariga ham tegishli. Shuning uchun xor jamoasi bilan ishlashda ularni shunga tayyorlash doimiy bu asosiy ishlardan bo'lishini unutmaslik lozim. Har bir musiqa o'qituvchisi o'zining kasbiy vazifasiga kiradi, va unga ko'ra xor rahbari ham hisoblanadi. Shu bois ushbu paragrafda musiqa o'qituvchilari bilishi lozim bo'lgan xor sadosining (ijrosining) eng muhim elementlaridan bo'lgan ansambllik, xor malakasida ansambllikka erishish xususida atroflicha to'xtalib o'tamiz xormeyjisiri P. G. Cheepalov o'zining "Xor va uni boshqarish" nomli kitobida "Xor sadosining asosini interval va akkordlarning aniq talaffuzi (intonatsiyasi), ya'ni soz, xor partiyalarining moslashgan sadosi ansambllik va asar mazmunini achuvchi badiiy ifoda vositalari kabi elementlar tashkil qiladi" – deb uqtiradi.

Ansambl haqiqatda ham xor ijrochiligida ham asosiy elementlardan bo'lib, tovushlar sadosidagi birlik, aniq temp va ritmda ovozlarning tembriga ko'ra hamohangligi, xor va jo'r, solist va xor ovozining uyg'unlashuvidir.

Xor ansambli musiqa ansamblarining eng keng va kichik turlariga kiradi. Ansambl so'zi (fransuzcha – *ansamble*) – birga ya'ni hamohanglik demakdir.

Ansambl so'zi hayotda ancha keng ma'noda ishlatiladi. Musiqada esa ansambl turlicha bo'ladi. Ijrochilik turiga qarab ikki xonandadan iborat jorlik duet, uch kishi – trio, to'rt kishi – kvartet, besh kishi – kvintet, olti kishi – sekstet, sakkiz kishi – aktet, to'qqiz kishi – nontet, o'n kishi – deksamet va boshqalar vokal ansambliga kiradi.

Bir necha kishining birga qo'shiq aytish yoki musiqa asboblari kuy chalishi ham ansamblni tashkil qiladi. Shuningdek, musiqa ijrochiligida qizlar vokal ansambli, yigitlar vokal ansamblini, har hil intermentlar: Cholg'u ansamblari mavjud.

Xor va orkestr ham kollektiv ansamblga kiradi. Xorda yoki arkestrda xonandalar va sozandalar guruhlariga bo`linib, partiyalarni tashkil qiladilar. Alohida bir xor partiyasidagi xonandalarni ovoz tembri va diapazoni tahminan bir xil (bir-biriga yaqin) bo`lsa shuning o`zi xonandalar ansambli bo`ladi.

Demak, xor jamoasi vokal ansambllaridan orkestr esa instrumental ansambllardan tashkil topadi desak hato bo`lmaydi. Bu xususiyat bolalar xor jamoasi uchun ham xosdir.

Xor ansambli ikki asosiy ko`rinishda bo`ladi: Xususiy va umumiy ansombl.

Xususiy ansambl – ma`lum bir partiyadagi ovozlarning uyg`unlashuvi.

Umumiy ansambl – hozirdagi barcha ovoz guruhlari ya`ni umumiy jamoaning sadosidir.

Xor jamoasida asosiy to`rt partiya (soprano, alt, tenor, bas) partiyalarining qo`shilishi va uyg`unligi umumiy ansamblni tashkil etadi. Bolalar xor jamoalarida asosan ikkita ovoz partiyasi ishtirok etadi. Demak bolalar xor jamoasi asosan ikki xususiy ansambldan, ya`ni diskantlar va altlar partiyalari o`quvchilardagi ansambllardan tashkil topadi.

Xor ijrosida biror bir xususiy partiyadagi ansambllik buzilsa umumiy ansambllik ham bo`lmaydi. Demak xor rahbari mana shunga ko`ra har bir partiyani ansambllikka erishishi lozim bo`ladi.

Xor jamoasi katta-kichikligidan qat`iy nazar ansamblga ega bo`lishi zarur. Xor ansamblligi mukammal bo`lishi uchun xor ijrosida quyidagi omillar mavjud bo`lishi kerak.

- gorizontall intonatsiya;
- ovoz tembri;
- ovoz dinamikasi;
- tovushlar cho`zimi, ritmi;
- harakat birligi (agogika);
- talaffuz birligi va boshqalar.

Bular o'z navbatida: intonatsiya ansambligi, soz ansambligi tembr ansambli, agogik ansambllik, densiya – arfoepik ansambllik, tessitura ansambligi kabilarni tashkil qiladi.

Xususiy ansambllik: xor rahbari havoskorlik yoki sinf jamoasini xor sifatida shakllantirar ekan, bolalar ovozini tembr xususiyatiga ko'ra mosligiga va ovoz diapazoniga qarab xor partiyasiga biriktirish kerak. Shunda har xil ovoz barpo qilish va chiqarish, nafas olish, talaffuz va intonatsiyaga erishish oson kechadi.

Yarim ansambl xordagi 2ta bir turdagi ovoz partiyalarini qo'shilishi va tovushlar uyg'unligi – yarim ansamblni tashkil etadilar.

To'liqsiz xor – uch ovoz partiyasini qo'shilishidan hosil bo'ladi. Masalan, ayollar xori (partiyalari 2ta) va tenor (C+A+T) yoki bas (C+A+B), aksincha T+B+A, T+B+C.

Umumiy to'liq ansambl aralash xordagi hamma (to'rtala) ovoz partiyalaridagi tovush dinamikasining tengligi va uyg'unligidir.

Xorda umumiy ansamblni barpo etish uchun quyidagi shartlarga amal qilish kerak:

1. har bir xor partiyasidagi xonandalar son jihatidan teng bo'lishidir.
2. har bir xor partiyasidagi ovozlar sifat jihatidan (tembr) bir xil bo'lishiga.
3. har bir ovoz partiyasida toza unsonli ansamblga erishishi kerak.

Xorda ishtirok etayotgan har bir o'qituvchi o'zi mansub ovoz partiyasiga qo'shila olishi, ritmik temp dinksiya, dinamik birlikka erishish zarur.

Har xil fakturali asarlarda – xor ansambli: Xor asari fakturaliga qarab, unda ansambl turlari ham har xil bo'ladi.

1. Unison yoki oktavali unison ansambl;
2. Akkord-gormonik asarlardagi xor ansambli;
3. Polifonik asarlardagi xor ansambli;
4. Xor va solist o'rtasidagi ansambl;
5. Xor, jo'rnavoz, solist, orkestrlar o'rtasidagi ansambl .

Xorda ansambllik ustida ish olib borilganda o'qituvchi asarni yozilishiga qarab cholg'u asbobi (fortepiano yoki milliy cholg'ular) solist xor partiyalari

uyg'unligiga asosiy e'tibor beriladi. Shuningdek asar yozilishida asosiy kuy (mavzu) qaysi partiyada bo'lsa, qolgan partiyalarni suniy ravishda ikkinchi darajasiga tushurib ya'ni pasaytirib kuylatish kerak bo'ladi. Xorda yakkaxon solist ishtirok etganda ham huddi shunday yo'l tutiladi.

Ba'zi xor asarlarida musiqa sifatlari yetarli darajada bo'lmaydi. Bunday asarlarni xor ilan ijro etishda drijyor suniy ravishda partiyalar sadosini uyg'unlashtiradi. Bunga suniy ansambl deyiladi.

Agar asarda partiyalardan biridagi ma'lum bir fraza yoki akkordlar har xil regstrlarda yozilgan bo'lsa (bir partiya yuqori regstrda, ikkinchi partiya pastki regstrda) ovoz kuchi bir jaranglamaydi. Xor ishtirokida umumiy ansambllik buziladi. Bunday holda xor rahbari ovozlar dinamikasini (kuchini) suniy tenglashtiradi. Masalan, asar muallifi hamma partiyalarda har xil "f" (forte) dinamikasini qo'llagan. Drijyor esa pastki partiyalarni yahshi eshitish uchun yuqori tesseturadagi (masalan, saprano) partiyasiga "f" ni emas "mf" ni qo'yadi. Ovoz kuchini bunday pasaytirish va kuchaytirish yo'li bilan ovozlar kuchi suniy tenglashtiriladi. Buning uchun xor rahbari qobilyatli, mahoratli pedagog-tarbiyachi bo'lishi lozim. Uning tashkilotchilik mahorati ham muhim ahamiyatga ega. Rahbarning xorda psixologik va ijodiy muhitni barpo qila olishi ish jarayonida muvaffaqiyatga olib keladi. Xor san'ati tinglovchilarni badiiy-estetik tarbiyalash bilan birga ularni xalq qo'shiqlari ijodiyoti durdonalari zamonaviy mavzulardagi asarlar, shuning qardosh xalqlar, rus va chet el klassik vokal-xor asarlari namunalari bilan tanishtiradi ularning ma'naviy dunyosini boyitadi.

II-bob: Jamoaviy ijro jarayonida o'quvchilarni badiiy – estetik tarbiyalash.

Xor ijrochiligi hozirgi vaqtda keng tarqalgan, umumiy ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darsining asosini tashkil etuvchi, musiqa ilmgohlarida, musiqa-pedagogika fakultetlarida asosiy fanlardan biri bo'lgan, havaskorlik va professional san'atda eng demokratik va ommaviy xarakterga ega va taraqqiy qilgan san'at turidir.

Boshqa san'at turlari kabi u ham kishilarning hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'zida kundalik hayotni, davr ruhi va nafasini mujassamlashtiradi, kishilarni g'oyaviy-estetik jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Uning boshqa san'at turlaridan farqi eng muhim xususiyat uning ommaviyligidir.

Xor ijrochiligi ko'pchilik ijrochilarni birlashtiradi. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida ijrochilarni uyg'ulashtiradi, ularda san'atning eng nozik tomonlarini, ya'ni o'zi kuylab o'zgalarni ham eshitish, o'zgalarga ergashish, jo'r bo'lish kabi hislatlarni shakllantiradi. Xor san'atining bu xususiyati ko'pchilik, ba'zan necha yuzlab ijrochilarni bir g'oyaga uyushtirishda, yagona ijrochilik maqsadi tomon yunaltirishda, shu bilan so'z va musiqadagi mazmun, his-tuyg'uni ko'pchilik tomonidan ifoda etilishi namoyon bo'lapdi.

Xor san'ati tinglovchilarni badiiy-estetik tarbiyalash bilan birga ularni xalq qo'shiqlari ijodiyoti durdonalari zamonaviy mavzulardagi asarlar, shuning qardosh xalqlar, rus va chet el klassik vokal-xor asarlari namunalari bilan tanishtiradi. Ularning ma'naviy dunyosini boyitadi. Bu shunday san'atki u doimo xalq qo'shiqchilik ijodiyoti bilan bog'liq mintaqalar xalqlari musiqa madaniyati shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynab kelgan.

Xor san'ati uzoq tarixga egadir. Qadim zamonlardan kishilar o'z orzu-umidlari, xis-tuyg'ularini qo'shiq kuylash, raqs, pantomima (badan harakati) qilish kabi vositalar bilan ifodalab kelganlar. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytish deyarli hamma xalqlarning mehnat faoliyati, maishiy turmushi, an'anaviy marosimlari bilan bog'liq bo'lib kelgan. Ma'lumki an'anaviy marosim qo'shiqlari u yoki bu marosim munosabati bilan to'qilgan va ko'pchilik orqali jo'r bo'lib, xor tarzida ijro etilgan. Bunga o'zbek xalqining ham turli marosimlar bilan bog'liq qo'shiqlarni misol keltirish mumkin, (kelin yor-yorlari, yomg'ir yog'dirish bilan bog'liq «Sust xotin», g'alla yanchish, to'y, aza, aytishuv va ho kazo).

Xor san'atining paydo bo'lishi bevosita Cherkov qo'shiqchiligiga borib taqaladi. Aytish mumkinki, cherkov qo'shiqchiligi asosan unison (bir ovozli) bo'lib, 10-asrlardan undan ikki ovozlik paydo bo'la boshlaydi. Uyg'onish davriga kelib etakchi evropa davlatlarida ko'p ovozli xor ijrochiligi rivojlandi.

15-16 asrlarda D.Palestrina, O.Lasso, K.Janekin, J.Depre kabi polifonist kompazitorlar yashab ijod davrida xor san'atining ko'p ovozlik shakllari va akapella ijrochilik uslubi keng ravnaq topdi.

Podshoh, knyaz, pomeshchiklar saroylarida xor kapellalari tashkil topa boshladi. Bular professional xorlar bo'lib turli bazm, o'yin kulgi kechalarida xizmat qilgan. Keyinchalik 17-19 asrlarda Bax, Tendel, Betxoven, Lyuk, Faydn, Moiart, Verdi, Bize, romantik kompazitorlardan Shubert, Shuman, Mendelzon, rus kompazitorlaridan Glinka, Rimskiy-Korsakova, Musorgskiy, Chaykovskiy, Borodin, Kyui, Tanazv va boshqa o'z ijodlari bilan xor san'tini yuksak cho'qqilarga ko'tardilar.

Xor san'ati o'z rivojida musiqa san'ati turi sifatida ikki yo'nalishda – akademik va xalq ijrochiligi yo'nalishlarida rivojlanib keldi. Kuylash usuli, tovush hosil qilish xarakteri, ovozlarning tembr turlanishi, ijrochilik texnikasi usullari va ifodalash vositalarining imkoniyatlariga qarab xor ijrochilik uslubi aniqlanadi. Akademik xorlar asosan klassik kompazitorlarning vokal-xor, opera-xor asarlarining ijrosi yaxshi namunalarini ijro etish va targ'ib qilishga yo'naltirilgan. Xor ijrosi dirijyor boshchiligida, f-no yoki simfonik orkestr jo'rligida bo'ladi.

Kuylash usuli niqobdor holda, bo'lib, tovush ravon, ovozlari xor partiyalariga aniq bo'lgan bo'ladi.

Xalq xorlarining asosiy vazifasi ilgari yaratilgan xalq qo'shiqlarini zamonaviy tarzda qayta ishlangan namunalarini, shuningdek kompazitorlarning xalq xorlari uchun yaratilgan original asarlarini ijro etish va targ'ib qilishdan iborat.

Xalq xorlari dirijyorsiz, bayan yoki boshqa xalq cholg'u asboblari jo'rligida qo'shiqlar ijro etishadi. Kuylash usuli ochiq nutqqa yaqin, xalq ijrochilik an'analari asoslangan, ovozlarga aniq bo'linmagan bo'ladi. Unda raqslar ham ishtirok etilishi mumkin.

Bizga xor san'ati asosan rus xor san'ati va madaniyati ta'siri orqali kirib kelgan ekan, shu bois rus xor san'ati tarixiga qisqacha to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz. Rus xor madaniyati boy tarixga ega, unda xor ijodiyoti va ijrochiligi bir necha o'zaro bog'liq yo'nalishda rivojlanib keldi. Shahar va krestyan qo'shiqchiligi,

ma'rifatli qo'shiq sevuvchilar xorlari, maktab xorlari, professional cherkov xorlari va nodiniy yo'nalishdagi xorlar, opera xorlari shular jumlasidandir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoa bo'lib qo'shiq kuylashga o'rgatish umumiy o'rta ta'lim maktablarini musiqa o'qituvchisi zimmasidagi muhim vazifalardan biridir. Jamoa bo'lib kuylash o'quvchilarda bir qator ijobiy jihatlarni jumladan, ularni ahloqiy jihatdan shakllanishiga katta ta'sir etadi. Birinchidan qo'shiq aniq bir mavzugaqaratilgan bo'ladi. Ikkinchidan, o'quvcilar qo'shiqlarda aks etgan o'zga insonlarning ruhiy holatini,uning kechinmalarini his qiladilar. Jamoa bo'lib kuylash nafaqat estetik didli balki o'quvchilarning tashabbuskorligini ijodiy qobiliyatlarini, tarbiyalaydi va musiqiy qobiliyatlar (qo'shiqchilik ovozi, usulni his etishni, musiqiy xotira)ni rivojlantiradi, qo'shiqchilikmalakalarini, musiqiy qiziqishlarini oshirib emotsional hamda vokal-xor malakalarini orttiradi. Jamoa bo'lib kuylash inson hayotida jamoatchilikning o'rnini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantiradi va ularni tartibga soluvchi ta'sir qiladi, hamda jamoatchilik, do'stlik hislarini shakllantiradi. Jamoa bo'lib kuylash darslarida ijro etish uchun musiqiy asar tanlashda kuylanadigan materialni to'g'ri tanlash asosiy shartlardan biridir.

Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishning qo'shiq kuylash jarayonida, o'quvchilar avval kuylanadigan qo'shiqni o'qituvchi ijrosida ma'lucholg'u jo'rligida tinglaydilar. Bu o'quvchilarda qo'shiq haqidagi dastlabki tasavvurlarni hosil qiladi. O'quvchilarga qo'shiq kuylashni o'rganish jarayonida o'qituvchi o'z bilimini ularni ongiga yetkazish uchun juda qulay vaziyat vujudga keladiki, bunda o'qituvchi bolalarni mustaqil to'g'ri idrok qilishga tayyorlash muhimdir. Musiqa darslarida xotirani kuchaytirish va rivojlantirishning asosiy prinsiplaridan biri darslarni soddadan murakkaga, quyidan yuqoriga qarab boorish prinsiplariga asoslangan holda uyushtirishdir.

Qo'shiq aytish san'ati vokal-xor malakalariga ega bo'lishini talab etadi va quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi:

9. Kuylash jarayonida to'g'ri o'tirish yoki trish;
- 10.To'g'ri nafas olish;

11.Ohangdoshlikni his etishga erishish;

12.Boshqa o`quvchilarni tinglagan holda kuylash.

Jamoa (xor) bo`lib qo`shiqni kuylash oldidan va uni kuylash jarayonida musiqiy savodxonlik komponentlarini tashkil etuvchi bir qancha vazifalarni amalgam oshirish lozim, misol uchun:

- Qo`shiq haqida dastlabki va emotsional ta`surotlar hosil qilish (qo`shiqni tinglab ko`rish orqali);
- Qo`shiqni musiqiy tahlil qilish (o`lchov, temp, ritm, janr va hokozolarni aniqlash);
- Qo`shiqning so`zlari ustida ishlash;
- Qo`shiqni kichik bo`laklarga bo`lib o`rganish;
- Qo`shiqni bir necha marotaba qaytarish orqalimustahkamlash;
- Asarning musiqiy – badiiy obrazini tinglovchiga yetkazib kuylash (musiqiy harakatlar).

Bu vazifalarni amalgam oshirish uchun o`qituvchi eng avvalo tanlangan qo`shiqning yaratilishi haqida qisqacha ma`lumot berishi va cholg`u jo`rligida ifodali kuylab berishi lozim.

Yuqoridagi vazifalarni hisobga olgan holda qo`shiq kichik bo`laklarga bo`linib o`rganiladi. Keyin butun obrazlar, jumlar bo`yicha qo`shiladi. Qo`shiqni kuylaganda o`quvchilar o`qituvchining ijrosiga suyanadilar. Bu vazifalarni o`quvchilarni bilim darajasini ya`ni kuylash madaniyatini shakllantirmasdan amalgam oshirib bo`lmaydi. O`quvchilarni kuylash malakalarini shakllantirish jarayoni bir xil echmaydi. Boshlang`ich sinflarda kuylash malakalarini shakllantirishni quyidagi uch bosqichga bo`lishimiz mumkin.

7. Oddiy elementlar kuylashni o`rganishga erishish.

8. Oddiy mashqlarni mustahkamlash va rivojlantirish.

9. Hosil bo`lgan kuylash mahoratidan samarali foydalanish.

Shakllanishning ilk bosqichlaridanoq o`quvchilar kichik diapazonda bo`lsa ham, sof, toza va ifodalash dinamik belgilarga rioya qilgan holda kuylashga harakat qilishlari kerak. Kuylaganda og`izni to`g`ri ochish, nafasni to`g`ri olish,

kuylash talaffuzini yaxshilash, ovoz tembrini yorqinroq hamda yumshoqroq qilishga erishishlari mumkin.

Birinchi bosqichda o`qituvchi o`quvchilarni tovush pardasiga og`irlik tushmasligi va ularning ovozlari charchab qolmasligi uchun qo`shiq aytish faoliyatini boshqa faoliyatlar bilan almashtirib turishi lozim.

Ikkinchi bosqichda asosiysi o`quvchilarning malakalarining hamma qirralarida ijobiy o`zgarishlar ro`y beradi. Nafas yo`llarida erkinlik hosil bo`ladi, ovoz temri yorqinlashadi, musiqiy xotira, eshitish, ladni his etish qobiliyati, diqqat rivojlanadi.

So`nggi bosqichda kuylash malakalarini rivojlanganlik darajasi yuqori bo`ladi. Jarangdorlikning sof va ifodali bo`lishi, ovoz hosil bo`lishi usulining mustahkalanishi ovoz temri sifatining oshishi ovoz diapazonining sezilarli darajada kengayishi, kuylashda talaffuzning hamda nafas olishning to`g`ri shakllanganligini ko`rsatishimiz mumkin. Bu bosqichda o`quvchilar chuqur musiqiy his-tuyg`u va musiqiy to`g`ri kuylashga erishgan bo`ladilar. Bu davrda o`qituvchi katta diapazonli, sakrashlar ishtirok etgan mashqlardan, turidan foydalanish mumkin. Masalan: Musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirishn, darajasi ovoz tembrining sifatiga, ovoz hosil qilish usuliga va boshqa malakalarga ta`sir qiladi.

2.1. Jamoaviy ijrochilik faoliyatida xonandalarning ovoz va musiqa qobilyatlarini aniqlash bo`yicha olib boriladigan ishlarning mazmini.

Xor ishtirokchilari bilan o`tkaziladigan suhbatda rahbar ularni qiziqishlarini xor qo`shiqchiligi va san`atiga muhabbatlari, qanday qo`shiqlarni yoqtirishlarini aniqlaydi.

Mana shu ishlardan keyin havaskorlarni yakka-yakka eshitishga kirishish mumkin. Bunda biror tovush fortepianoda chalinib eshittiriladi va uni kuylab berish so`raladi. Havaskor yangi tonlikka tez moslashsa unung musiqiy eshitish qobilyati, xotirasi yaxshi ekanligini bildiradi. Ovoz diapazonini aniqlashda mashqlar pastki registr notalaridan boshlanib yarim ton bilan yuqoriga qarab davom ettiriladi. Shunday qilib ovoz avvalo uning tembriga, keyin esa diapazoniga qarab aniqlanadi. Bolalarni musiqiy xotirasini aniqlash uchun kichik kuy yoki alohida

jumlalardan iborat mashqlardan foydalaniladi. Kichik kuy chalib eshittiriladi, keyin esa uni takrorlash so'raladi. Havaskor kuyni aniq takrorlasa, kuy o'zgartirilib chalinadi. Havaskor kuyni toza va aniq intonasiya qilishiga qarab uning musiqiy xotirasini baholashi mumkin.

Xor rahbari qobilyatli, mahoratli pedagog-tarbiyachi bo'lishi lozim. Uning tashkilotchilik mahoratli pedagog-tarbiyachi bo'lishi lozim. Uning tashkilotchilik mahorati ham muhim ahamiyatga ega. Rahbarning xorda psixologik va ijodiy muhitni barpo qila olishi ish jarayonida muvaffaqiyatga olib keladi.

Xor jamoasini boshqarish bu avvalo havaskor o'qituvchilarga axloqiy estetik jihatdan tarbiyaviy ta'sir etishi shart. Bolalar xori rahbarining asosiy vazifalari asosan quyidagicha;

1. Ijrochilik mahoratiga ega bo'lgan xor jamoasini barpo qilish.
2. Xonandalarda yaxshi musiqiy did va ijodiy qiziqishni shakllantirish.
3. Xorda G'oyaviy tarbiyaviy va o'quv tarbiyaviy ishlarini olib boorish.
4. Konsert dasturlari tayyorlash va konsertlarda ijro etish.

Bolalar xorida olib boriladigan g'oyaviy tarbiyaviy -estetik tarbiyaviy ishlarni qatnashchilarni siyosiy, madaniy, ahloqiy va ma'naviy jihatdan kamol toptirishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

O'quv tarbiya ishlari ham o'quvchilarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashga qaratiladi. Har bir qo'shiq tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Asar g'oyasini ta'siri kishilarni g'oyaviy estetik tarbiyalashga xizmat qilmog'i kerak.

O'quv tarbiya ishlari havaskor xonandalarda vocal-xor va ijrochilik malakalarini shakllantirish musiqiy-nazariy bilimlarini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Bolalar xorlarida qatnashchilarga musiqa savodi solfedjio, musiqa nazariyasi va tarixi bo'yicha nazariy bilimlarni berib boorish bilan ularda vocal-xor malakalarini shakllantirib borish mumkin. Musiqa savodi xorda doimiy ravishda olib borishi kerak. Bundan maqsad xorda asta-sekin nota bilan ifodali kuylashni solfedjio qilishni o'rganishdir. Bu o'z navbatida qo'shiq o'rganish jarayonini

tezlashtiradi. O'quv mashg'lotlarida olinangan malakalar xorning kundalik ishida amaliy qo'llanilib boorish yaxshi natijalar beradi. O'tilgan materiallarni takrorlab boorish musiqa savodi va solfedjioni yaxshi sifat va samaralarga eririshini ta'minlaydi.

Qo'shiq kuylash jarayonida eng muhim jihat – bu repertuar tanlashdir. Chunki yaxshi va to'g'ri tanlangan repertuar o'quvchilarni badiiy – musiqiy, estetik tarbiyasida muhim jihatdir. Birinchidan turli mavzu va yuqori badiiy axloqiy mazmundagi repertuar o'quvchilarni badiiy – axloqiy va g'oyaviy tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ularni dunyoqarashini kengaytiradi. Yaxshi fazilatlariga, tabiat, hayvonot olami haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytiradi. Ularda ona vatanga muhabbat, xalq musiqasi, madaniyati, qadriyatlariga xurmat, uni sevish va xurmat qilish, yutuqlaridan faxirlanish qiyosini tarbiyalaydi. To'g'ri tanlangan repertuar o'quvchilarni emosional – ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga, badiiy qarashlarining shakillanishiga, yuqori estetik didlarini, musiqiy sluxi, xotirasi va ta'sirchanlik xususiyatlarini tarkib topishiga yordam beradi.

O'quvchilarni qo'shiqni ijro etishlarida ansambil va sozlanishlari asarni g'oyaviy badiiy mazmunini tushunib ijro etishlari, ya'ni badiiy ijrochilik maxoratlarini egallab borishlariga doimiy e'tibor berib borish kerak. Chunki musiqa darsi-nafosat darsidir. Chiroyli ovoz, ijro mahorati, yaxshi jo'rnavozlik, ansambillik, badiiy sayqal o'quvchilarni o'z ijrolaridan o'zlari badiiy estetik zavq olishlari, huzurlanishlari va ularda qo'shiq kuylashga bo'lgan moyil istaklarini kuchayib borishiga olib boradi. Bu o'z navbatida badiiy estetik tarbiyaning eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Yuqori ijrochilik darajasiga erishishda har bir o'quvchini individual mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki musiqa darsida qo'shiq kuylash jamoaviy shaklda namoyon bo'ladi. Butun sinf o'quvchilari bir butunlikni xosil qiladi.

Ular bir maqsad atrofida yaxlid birlashadilar.

Xor ijrochiligi amaliyotida ham chiqargan xor drijiorlari xor jamoasi ijrosini eng muhim elementlari haqida o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Ijrochilik san'at turi sifatida bu elementlar bolalar xor jamoalariga ham tegishli. Shuning uchun xor jamoasi bilan ishlashda ularni shunga tayyorlash doimiy bu asosiy ishlardan bo'lishini unutmaslik lozim. Har bir musiqa o'qituvchisi o'zining kasbiy vazifasiga kiradi, va unga ko'ra xor rahbari ham hisoblanadi. Shu bois ushbu paragrafda musiqa o'qituvchilari bilishi lozim bo'lgan xor sadosining (ijrosining) eng muhim elementlaridan bo'lgan ansambllik, xor malakasida ansambllikka erishish xususida atroflicha to'xtalib o'tamiz xormeyjisiri P. G. Cheepalov o'zining "Xor va uni boshqarish" nomli kitobida "Xor sadosining asosini interval va akkordlarning aniq talaffuzi (intonatsiyasi), ya'ni soz, xor partiyalarining moslashgan sadosi ansambllik va asar mazmunini achuvchi badiiy ifoda vositalari kabi elementlar tashkil qiladi" – deb uqtiradi.

Ansambl haqiqatda ham xor ijrochiligida ham asosiy elementlardan bo'lib, tovushlar sadosidagi birlik, aniq temp va ritmda ovozlarning tembriga ko'ra hamohangligi, xor va jo'r, solist va xor ovozining uyg'unlashuvidir.

Xor ansambli musiqa ansambllarining eng keng va kichik turlariga kiradi. Ansambl so'zi (fransuzcha – ensemble) – birga ya'ni hamohanglik demakdir.

Ansambl so'zi hayotda ancha keng ma'noda ishlatiladi. Musiqada esa ansambl turlicha bo'ladi. Ijrochilik turiga qarab ikki xonandadan iborat jorlik duet, uch kishi – trio, to'rt kishi – kvartet, besh kishi – kvintet, olti kishi – sekstet, sakkiz kishi – aktet, to'qqiz kishi – nontet, o'n kishi – deksamet va boshqalar vokal ansambliga kiradi.

Bir necha kishining birga qo'shiq aytish yoki musiqa asboblari kuy chalishi ham ansamblni tashkil qiladi. Shuningdek, musiqa ijrochiligida qizlar vokal ansambli, yigitlar vokal ansamblini, har hil intermentlar: Cholg'u ansambllari mavjud.

Xor va orkestr ham kollektiv ansamblga kiradi. Xorda yoki arkestrda xonandalar va sozandalar guruhlariga bo'linib, partiyalarni tashkil qiladilar.

Alohida bir xor partiyasidagi xonandalarni ovoz tembri va diapazoni tahminan bir xil (bir-biriga yaqin) bo'lsa shuning o'zi xonandalar ansambli bo'ladi.

Demak, xor jamoasi vokal ansambllaridan orkestr esa instrumental ansambllardan tashkil topadi desak hato bo'lmaydi. Bu xususiyat bolalar xor jamoasi uchun ham xosdir.

Xor ansambli ikki asosiy ko'rinishda bo'ladi: Xususiy va umumiy ansombl.

Xususiy ansambl – ma'lum bir partiyadagi ovozlarning uyg'unlashuvi.

Umumiy ansambl – hozirdagi barcha ovoz guruhlarida ya'ni umumiy jamoaning sadosidir.

Xor jamoasida asosiy to'rt partiya (soprano, alt, tenor, bas) partiyalarining qo'shilishi va uyg'unligi umumiy ansamblni tashkil etadi. Bolalar xor jamoalarida asosan ikkita ovoz partiyasi ishtirok etadi. Demak bolalar xor jamoasi asosan ikki xususiy ansambldan, ya'ni diskantlar va altlar partiyalari o'quvchilardagi ansambllardan tashkil topadi.

Xor ijrosida biror bir xususiy partiyadagi ansambllik buzilsa umumiy ansambllik ham bo'lmaydi. Demak xor rahbari mana shunga ko'ra har bir partiyani ansambllikka erishishi lozim bo'ladi.

Xor jamoasi katta-kichikligidan qat'iy nazar ansamblga ega bo'lishi zarur. Xor ansamblligi mukammal bo'lishi uchun xor ijrosida quyidagi omillar mavjud bo'lishi kerak.

- gorizontall intonatsiya;
- ovoz tembri;
- ovoz dinamikasi;
- tovushlar cho'zimi, ritmi;
- harakat birligi (agogika);
- talaffuz birligi va boshqalar.

Bular o'z navbatida: intonatsiya ansamblligi, soz ansamblligi tembr ansambli, agogik ansambllik, densiya – arfoepik ansambllik, tessitura ansamblligi kabilarni tashkil qiladi.

Xususiy ansambllik: xor rahbari havoskorlik yoki sinf jamoasini xor sifatida shakllantirar ekan, bolalar ovozini tembr xususiyatiga ko'ra mosligiga va ovoz diapazoniga qarab xor partiyasiga biriktirish kerak. Shunda har xil ovoz barpo qilish va chiqarish, nafas olish, talaffuz va intonatsiyaga erishish oson kechadi.

Yarim ansambl xordagi 2ta bir turdagi ovoz partiyalarini qo'shilishi va tovushlar uyg'unligi – yarim ansamblni tashkil etadilar.

To'liqsiz xor – uch ovoz partiyasini qo'shilishidan hosil bo'ladi. Masalan, ayollar xori (partiyalari 2ta) va tenor (C+A+T) yoki bas (C+A+B), aksincha T+B+A, T+B+C.

Umumiy to'liq ansambl aralash xordagi hamma (to'rtala) ovoz partiyalaridagi tovush dinamikasining tengligi va uyg'unligidir.

Xorda umumiy ansamblni barpo etish uchun quyidagi shartlarga amal qilish kerak:

4. har bir xor partiyasidagi xonandalar son jihatidan teng bo'lishidir.
5. har bir xor partiyasidagi ovozlar sifat jihatidan (tembr) bir xil bo'lishiga.
6. har bir ovoz partiyasida toza unsonli ansamblga erishishi kerak.

Xorda ishtirok etayotgan har bir o'qituvchi o'zi mansub ovoz partiyasiga qo'shila olishi, ritmik temp dinksiya, dinamik birlikka erishish zarur.

Har xil fakturali asarlarda – xor ansambli: Xor asari fakturaliga qarab, unda ansambl turlari ham har xil bo'ladi.

6. Unison yoki oktavali unison ansambl;
7. Akkord-gormonik asarlardagi xor ansambli;
8. Polifonik asarlardagi xor ansambli;
9. Xor va solist o'rtasidagi ansambl;
10. Xor, jo'rnavoz, solist, orkestrlar o'rtasidagi ansambl .

Xorda ansambllik ustida ish olib borilganda o'qituvchi asarni yozilishiga qarab cholg'u asbobi (fortepiano yoki milliy cholg'ular) solist xor partiyalari uyg'unligiga asosiy e'tibor beriladi. Shuningdek asar yozilishida asosiy kuy (mavzu) qaysi partiyada bo'lasa, qolgan partiyalarni suniy ravishda ikkinchi

darajasiga tushurib ya`ni pasaytirib kuylatish kerak bo`ladi. Xorda yakkaxon solist ishtirok etganda ham huddi shunday yo`l tutiladi.

Ba`zi xor asarlarida musiqa sifatlari yetarli darajada bo`lmaydi. Bunday asarlarni xor ilan ijro etishda drijyor suniy ravishda partiyalar sadosini uyg`unlashtiradi. Bunga suniy ansambl deyiladi.

Agar asarda partiyalardan biridagi ma`lum bir fraza yoki akkordlar har xil regstrlarda yozilgan bo`lsa (bir partiya yuqori regstrda, ikkinchi partiya pastki regstrda) ovoz kuchi bir jaranglamaydi. Xor ishtirokida umumiy ansambllik buziladi. Bunday holda xor rahbari ovozlar dinamikasini (kuchini) suniy tenglashtiradi. Masalan, asar muallifi hamma partiyalarda har xil “f” (forte) dinamikasini qo`llagan. Drijyor esa pastki partiyalarni yahshi eshitish uchun yuqori tesseturadagi (masalan, saprano) partiyasiga “f” ni emas “mf” ni qo`yadi. Ovoz kuchini bunday pasaytirish va kuchaytirish yo`li bilan ovozlar kuchi suniy tenglashtiriladi. Buning uchun xor rahbari qobilyatli, mahoratli pedagog-tarbiyachi bo`lishi lozim. Uning tashkilotchilik mahorati ham muhim ahamiyatga ega. Rahbarning xorda psixologik va ijodiy muhitni barpo qila olishi ish jarayonida muvaffaqiyatga olib keladi. Xor san'ati tinglovchilarni badiiy-estetik tarbiyalash bilan birga ularni xalq qo`shiqlari ijodiyoti durdonalari zamonaviy mavzulardagi asarlar, shuning qardosh xalqlar, rus va chet el klassik vokal-xor asarlari namunalari bilan tanishtiradi ularning ma'naviy dunyosini boyitadi.

2.2. Jamoaviy ijrochilik faoliyatida o`quvchilar bilimlarini o`zlashtirish yuzasidan tajriba sinov ishlari.

Musiqa madaniyati darslarida sinflarda o`quvchilarni musiqa tinglash, uni idrok etish, kuyga tavsif berish, jamoa bo`lib qo`shiq kuylashga o`rgatish juda murakkab pedagogik-psixologik jarayonini talab qiladi. Chunki, o`quvchilarni musiqiy tayyorgarliklarini turli darajada bo`lishi, musiqiy o`quvi, eshituvi,

qiziqishlarini ham xilma-xilligi o'qituvchidan yuksak mahoratni va darslarni uyushtirishda turli qiziqarli usul va vositalardan foydalanishni talab qiladi. Ayniqsa 2 sinf o'quvchilari bu borada jiddiy e'tibor, mas'uliyatni talab qiladi. Ular musiqaga raqs tushish, qo'shiq kuylash, bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish kabilarni katta qiziqish va ishtiyoq bilan bajaradilar. Shuning uchun mazkur sinflarda darslarni jonli, ko'tarinki o'tkazish uchun o'qituvchi turli ko'rgazmaliklardan, texnika vositalaridan, tinglash, tahlil qilish, taqqoslash, bahs-munozara va biz oldingi badda to'xtalib o'tgan uslublardan unumli va ijodiy foydalanishlariga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, viktorina, bahs-munozara, konsert darslar o'quvchilarni oldingi bilim va tushunchalarini aniqlash va eng asosiysi mustahkamlashga qaratiladi. Shu bois biz pedagogik amaliyotni o'tash davrida o'zimizning tajriba-sinov ishimizni Jizzax shahriga qarashli №17 umumta'lim maktabining boshlangich sinfida olib borishga kirishdik. Tajriba – sinov ishlariga kirishgan vaqtimiz boshlang'ich sinfning 2- sinfida 3-chorak boshlanishiga to'g'ri kelganligi uchun tajriba boshida o'quvchilarni 1-2-chorak mavzulari bo'yicha bilim va tushunchalarini aniqlab olishni lozim topdik. Shu maqsadda o'quvchilarni o'quv materiallarini qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlashga yo'naltirilgan, 10 ta savoldan iborat kartochkalar tayyorladik. Buning uchun ikkita paralel sinf tanlandi. Sinflarning biri (2^A - sinf) tajriba sinfi sifatida, ikkinchi sinf esa (2^B -sinf) nazorat sinfi sifatida tanlandi.

Savollar birinchi, ikkinchi, uchunchi chorakda o'rganilgan Xor haqida tushuncha, q'o'shiq kuylash qoidalari, ton va yarim ton,altratsiya belgilariga oid qilib tuzildi:

1. Qanday tovushlarni bilasiz ?
2. Notalar qanday nomlanadi?
3. Yakkanavozlik deganda nimani tushunasiz?
4. Jo`rnnavozlik deganda nimani tushunasiz?
5. Kuy deganda nimani tushunasiz?
6. Repriza deb nimaga aytiladi?

7. O-bu qanday nota?

8. Dirijor kim?

9. “Navro`z keldi” qo`shig`i musiqa muallifi kim?

10. “Ota-onalarga” qo`shig`i musiqasini kim yozgan? Qo`shiqni she`rini kim yozgan? (chalkashtiruvchi savollar).

Savollarga javoblar “5” ballik tizimda baholandi. Bunda quyidagi baholash mezonlariga amal qilindi.

Natijalar shuni ko`rsatdiki, biz qo`llagan ish usullarimiz ijobiy va samaradorlik xususiyatiga ega. Chunki, tajriba guruhidagi bolalar bilimida ancha o`zgarish yuz bergan. Ya`ni “a`lo” baholar 8tadan 13taga, ko`tarilgan, “yaxshi” baholangan javoblar 7tadan 12taga oshgan, “qoniqarli” baholar 10tadan 4taga kamaygan. Nazorat guruhida esa barcha ko`rsatkichlar bo`yicha o`quvchilar o`zlashtirishlarida keskin, yoki ta`kidlab ko`rsatilgan o`zgarishlar deyarli sezilmadi.

Biz o`z ishimizni olib borish jarayonida bir muncha qiyinchiliklar va muammolarga duch keldik, lekin ko`zlagan maqsadimizga erishdik degan umiddamiz.

Turli yo`nalishdagi tarbiya ishlarini nixoyatda tushunarli, sodda va yuksak metodik darajada tashkil etib, bolalarga ilk yoshligidayok mexnat malakalarini jismoniy tarbiyani singdirish ularga musiqa va sanatga atrof va tevarakdagi obektiv dunyoga did bilan qarashga shakllantirish kerak. Musiqa san`ati xalq ijodining bir qismigina emas inson ruxining pedagogi va raxnamosidir.

Musiqa inson dunyoqarashini shakllantiradi. O`z kuchiga ishonish ruxini tiklash vaqtinchalik muvaffaqiyasizliklar oldida o`zini yo`qotib qo`ymaslik kabi xislatlarini tarbiyalaydi. Musiqa kishilarni birlashtiruvchi buyuk kuch. nafis kuy tinglayotgan kishi kalbida kechayotgan xissiy galayonlarga sherik bo`ladi. Musiqa asarlarning goyaviy idealini kuz oldida gavdalantiradi. Musiqa kishini xayotga chankoklikka urtatadi. Mexnat u nu mini oshiradi. Insoniy xayotga bo`lgan siyosiy

estetik karashlari shakllanishida muxim rol uynaydi. Inson musiqasiz yashashni tasavvuriga sig`dirolmaydi.

Xulosa: keyingi paytlarda umumta`lim maktablarida xor jamoalarini tashkil etish va ularning faoliyatiga jiddiy ahamiyat berilmokda shuning uchun biz bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini aynan mana shu yo`nalishga yaqin qilib olib tajriba- sinov ishlarini umumta`lim maktablari musiqa madaniyati darslarida olib bordik.

Umumiy xulosalar

Musiqqa fanining o'ziga xos xususiyati shundaki dars davomida olib boriladigan ta'limiy faoliyatlar mustaqil jarayonlar ko'rinishida bo'lishi mumkin, shu bilan birga ularni bir-biri bilan uzviy aloqada o'zaro bog'liq ravishda olib borish ushbu fanni o'qitilishi qonuniyatdan kelib chiqadi. Musiqqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqqa savodi va boshlang'ich sinflarda musiqqa ritmni his etish, jo'r bo'lish hamda bolalar cholg'u asboblariida ijro etish o'quvchilar tomonidan musiqiy nazariy bilimlarni ko'nikma va malakalarni to'liq o'zlashtirilishiga zamin yaratadi.

Darsning mohiyati, mazmuni va mavzusidan kelib chiqqan holda biror – bir faoliyat birinchi o'ringa chiqib kelishi ham mumkin. Lekin, darsning tuzulishi asosan, musiqiy ijrochilik bilan belgilanadi. Aynan mana shu ijrochilik, ya'ni qo'shiq aytish malakalarini egallash uchun nota yozuvi, dinamik belgilar, drijiyorlik qoidalaridan xabardor bo'lish zarur. Jamoa bo'lib kuylash jo'ra yonida o'quvchilarda jamoatchili, do'stlik, birdamlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bu jarayonda butun bir sinf jamoa bo'lib, bitta organizmga birlashib ishtirok etadilar. Shu tufayli musiqaviy qobiliyati sust bo'lgan o'quvchilar faol yaxshi musiqiy qobiliyatga ega o'quvchilarga ergashadilar.

Umum ta'lim maktablarida musiqqa darslari jarayonida jamoa bo'lib kuylash o'quvchilarni bir maqsad sari birlashtiradi. Kuylanayotgan asarlar badiiy estetik ta'sirida o'quvchilarda ahillik, birdamlik, musiqani eshitish, jo'ravozlik qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Musiqqa darslarida xor ijrochiligini badiiy yuqori saviyada tashkil etish bir muncha murakkab pedagogik jarayonni va mahoratni talab qiladi.

Mavzu bo'yicha tadqiqiy izlanishlarimiz davomida shu narsaga amin bo'ldikki, ko'plab musiqqa o'qutuvchilari qo'shiq kuylash faoliyatiga juda ma'suliyatsiz munosabatda bo'lishadi. Ko'pchilik musiqqa o'qituvchilari esa xor ijrochiligi bo'yicha tayyorgarlikka ega emaslar. Bunday holatda xor ijrochiligida badiiy saviyasi haqidagi gaplar ortiqchadir. Shu o'rinda mavjud muammolarni bir qadar bo'lsada bartaraf etish chora tadbirlarini ko'rish, ushbu masalaga ta'lim masalalari yuqori tashkilotlar ma'sul kishilar e'tiborini qaratish lozim deb o'ylaymiz. Xor san'ati tinglovchilarni badiiy-estetik tarbiyalash bilan birga ularni xalq qo'shiqlari

ijodiyoti durdonalari zamonaviy mavzulardagi asarlar, shuning qardosh xalqlar, rus va chet el klassik vokal-xor asarlari namunalari bilan tanishtiradi. Ularning ma'naviy dunyosini boyitadi.

Malakaviy bitiruv ishini bajarish davomida xor jamoasini tashkil etishga oid ko'plab manba'larni o'rganish, ulardagi ansambllikka oid fanlar, ko'rsatmalarni muayyan tajribalar bilan bog'lashga harakat qildik. O'ylaymizki har bir musiqa o'qituvchisi ushbu bitiruv ishdagi ma'lumotlardan o'ziga xos kerakli bo'lganlarni o'z faoliyatida qo'llashi, foydalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Karimov I. Yuksak ma`naviyat yngilmas kuch. T. N. Ma`naviyat – 2008-yil.
2. Karimov I. O`zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida. T. “O`zbekiston”- 2011-yil.
3. Alviya M. O`zbek xalq qo`shiqlari. – T.: O`zdavnashr 1959. -114 b.
4. Alimboyev K. (Tuzuvchi). O`zbek xalq qo`shig`i. (1951-yilgi materiallar. Toshkent, Farg`ona, Andijon). – T.: O`zdavnashr. 1955-yil. - 82 b.
5. Badiiy asarlar vositasida estetik tarbiya berish. –T.: O`qituvchi, 1978-yil. - 49 b.
6. Gulyor. (Farg`ona xalq qo`shiqlari). –T.: G`ofur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. 1969-yil. -68 b.
7. Gudkova E. A., Vaseleva A. V. Ashula darsligi metodikasi. –T.: O`rta va Oliy maktab. 1963-yil. -126 b
8. Dulgarova I. O`zbek xalq qo`shiqlari. -T.: O`zadabiy nashr. 1960-yil -82 b.
9. Jalilov T. Qo`shiqlar guldastasi. – T.: G`ofur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1989-yil. -126 b.
10. Jumayev M. Ma`naviyat maskanlari. – T.: Ma`naviyat. 2001-yil, 16 b.
11. Ikromov I. Sarvi gulro` kelmadi. 1-kitob. - T.: G`ofur G`ulom. Ikromov I. Davru-davronim go`zal. 2-kitob. –T.: G`ofur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. 1987-yil. -66 b.
12. Imomnazarov M. Milliy ma`naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. –T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konsertni bosh tahririyati. 1998-yil -239 b.
13. Matyoqub O. M. Og`izaki an`anadagi professional muzika asoslariga kirish. –T.: O`qituvchi, 1983-yil 64 b.
14. Nurmatov H. Musiqa va estetik madaniyat. Musiqa o`qituvchilari uchun metodik tavsiyalar. –T.: TDPI, 1992yil. -3 b.
15. Ostonasi tillodan. To`y qo`shiqlari. –T.: G`ofur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1971-yil. 94 b.

- 16.Solomonova T. E. (Tuzuvchi). O`zbek musiqa tarixi. –T.: O`qituvchi, 1981-yil. 122 b.
- 17.Tolibboyev Sh. Muzikaviy meros va tarbiya. –T.: O`zbekiston. 1982-yil. 108 b.
- 18.Tulenov J. Falsafiy madaniyat va ma`rifiy kamolot. –T.: Mehnat, 2000-yil. 215 b.
- 19.Tursunov R. G`amzasin sevding ko`ngil. –T.: G`ofur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. 1989-yil. 49 b.
- 20.Umarov E. Estetika. (Nafosatshunoslik). Oliy o`quv yurtlari talabalari uchun o`quv qo`llanma. –T.: O`zbekiston. 1995-yil. 246 b.
- 21.Fayzulina S. X. O`quvchi yoshlarning estetik tarbiyasi. –T.: O`qituvchi, 1978-yil. 49 b.
- 22.H. Nurmatov, N. Norxo`jayev. Musiqa alifbosi. 1-sinf uchun darslik. T.: O`qituvchi. 1998-yil
- 23.H. Nurmatov, N. Norxo`jayev, A. Mirrahimov. Musiqa. 2-sinf uchun darslik. G`ofur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.
- 24.H. Nurmatov, N. Norxo`jayev, A. Mirrahimov. Musiqa. 3-sinf uchun darslik. G`ofur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.
- 25.Ibrohimov O, J. Ibrohimov, I. Botirov. Musiqa. 4-sinf uchun darslik. –T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.
26. A. Hasanov. Musiqa va tarbiya. –T;- O`qituvchi. – 1993 yil.
27. G. Sharipova. Musiqa o`qitish metodikasi. (ma`ro`zalar matni). – TDPU-2000 yil
28. I. Qudratov., N. Tolibboyev. Boshlang`ich sinf musiqa darslarida o`zbek xalq qo`shiqlarini o`rgatish. –T;- Fan, 2007 yil.
29. I.V.Nestyev. Uchites slushat muzyku-M; -Музыка, 1987 yil.
30. M. Abralova. Musiqa. 2-sinf uchun o`quv qo`llanma. –T; - O`qituvchi, 2009 yil.
31. O`zbekiston vatanim manim. 1-kitob. – Toshkent, - T;- G`.G`ulom nomidagi Adabiyot san`at nashriyoti- 1997 yil.

32. O'zbekiston vatanim manim. 2-kitob. – Toshkent, - T;- G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti- 1998 yil.
33. Xrestomatiya po metodike muzыkalnogo vopitaniya. - M;-Provesheniye, 1988 god.